



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

SHAXS SHAKILLANISHIDA MULOQOTNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

Yaxshiboyeva Zuhra Bahodir qizi, Pardayeva Munisa Tolibjon qizi

O'zMU Jizzax filiali Psixologiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola muloqotning shaxs rivojlanishi va shakllanishiga qanchalik ta'sir ko'rsatishini yoritadi. Unda muloqotning shaxs ijtimoiylashuvidagi o'rni naqadar muhim ekanligi, muloqot orqali shaxs hayotiy ko'nikmalarni egallashi hamda muloqotning shaxs hayoti va faoliyatida qanchalik ahamiyatli ekanligi to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: muloqot, ijtimoiylashuv, ko'nikma, rivojlanish, jamiyat, ehtiyoj, ijtimoiy tajriba, muloqot madaniyati, ijtimoiy moslashuv.

Kirish. Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Komil insonning muhim sifatlaridan biri muloqot madaniyatidir. Yetarlicha shakllanmagan muloqot madaniyatisiz sog'lom ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish mushkul. Muloqot bilan bog'liq muammolar psixologiya fanida chuqur o'rganilgan. Unga tayanib insonning ruhiy taraqqiyotini, uning atrofdagilar bilan bo'ladigan aloqasini, individning shaxs bo'lib shakllanishini muloqotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki muloqot ham insonning o'ziga xos ehtiyojlaridan biri. Insonning go'daklik va o'smirlik davrlarida muloqot yetakchi, ya'ni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat sifatida gavydalanadi [1]. Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular interiorizatsiyalanadi. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro'yobga chiqariladi. Muloqot insonning jamiyatda yashashi va rivojlanishi uchun asosiy ehtiyojdir. Muloqot orqali insonlar bir-birini tushunadi, hamkorlik qiladi, bilim oladi va shaxslararo munosabatlarni mustahkamlaydi.

Muloqot orqali inson ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi. Muloqotning inson hayotida qanchalik ahamiyatli ekanligiga bir necha misollarda ko'rsak;

1938-yilda Amerikalik psixolog Richard Bard o'z xohishi bilan Antarktida muzliklarida 6 oy tanho qoladi. Bir tomondan u tajriba natijasiga qiziqsa, ikkinchi tomondan ikkinchi tomondan hayotning g'ala-g'ovurlaridan biroz dam olishni istagan. Keyinchalik u maskur davrni quyidagi so'zlar bilan ifodalaydi; «Bu yerdagi hayotim davomida bora-bora har bir harakatim, har bir ishim toboro mazmunsiz, mantiqsiz, maqsadsiz bo'lib borayotgandek edi. Xavf- xatardan qo'rqmaydigan inson bo'lsamda negadir bu yerda tomning bosib qolishidan xavfsiray boshladim. Ovqatlanishimda muntazamlilik yo'qoldi, yuvimay qo'ydim.»

Bir paytlar Amerikada barcha tamaddixonalarni avtamatlashtirish avj olgan edi. Ammo ko'p o'tmay ularning egalari kasodga uchray boshladi. Ma'lum bo'lishicha bu yerda odamlar nafaqat ovqatlanishga, balki suhbatdosh toppish uchun ham kelganlar

[2]. Bundan ko'rinadiki, insonlar doimo muloqotga ehtiyoj sezadilar va uni qondirishga harakat qiladilar.

Shaxsning har tomonlama shakllanishida muloqotning ahamiyati katta. Oddiy narsalami o'rganish uchun ham taqlid orqali o'zaro muloqotda bo'lish zarur. Jamiyat qonun-qoidalariga asoslangan holda munosabatlar rivojlanadi. Indivud bilan shaxs muloqoti o'rtasida juda katta farqni ko'rish mumkin. Masalan, go'dak, ruhiy kasal, ongi past rivojlangan kishilarning muloqoti bilan yetuk rivojlangan, ongi yuksak kishining muloqoti o'rtasida katta farq bor. Ongli shaxs muloqotni boshlashdan avvalmiyasida o'ylaydi, so'zlarini rejalashtiradi. Shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishida muloqotning o'rni katta. Masalan, axloqiy rivojlanish uchun oilada, maktabda, bog'chada bolaga kattalar muloqot orqali ta'sir qiladilar. Shuningdek, estetik, aqliy, jismoniy rivojlantirish uchun o'quvchiga o'qituvchi muloqot orqali ta'sir etishga harakat qiladi [3]. Demak, muloqot ta'sir qilish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Shaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim. Masalan, biz kichik yoshdagi bolalarga kattalarga nisbatan qo'llaydigan so'zlarni ishlatmaymiz. Har bir yosh davriga kiradigan kishilarga o'ziga xos so'zlar qo'llaniladi. Bunda so'zning ta'sir kuchi hisobga olinadi. Shaxsning temperament xususiyatlariga qarab muloqot usullarini qo'llash katta ahamiyatga ega.

Shaxsning shakllanishida muloqotning ahamiyati haqida psixolog olimlar o'z fikrlarini bayon qilganlar. Jumladan, psixolog B.G. Ananov «Odam bilishning predmeti sifatida» asarida bu masalani chuqur tahlil qilgan. U bilimning turli elementlarini egallash muvaffaqiyatli o'zlashtirishning garovi ekanligini ta'kidlaydi. Bilimlarni egallash muloqot orqali amalga oshirilishini ham uqtirib o'tadi. Agar kishilar o'zaro bir-birlariga axborot uzatmasalar, tajribalarini muloqot orqali almashmasalar rivojlanmay qolishlari to'g'risida B.G. Ananov asosli fikrlarni keltiradi. B.G. Ananov fikricha muloqot ijtimoiy va individual holatdir. Shuning uchun nutq bilan uzviy bog'liq, kommunikativ vazifani bajarishda pantomimika, imoishoralar muloqot shakllari sifatida yuzaga chiqadi. Demak, olim muloqot tushunchasini umumiy, yosh va pedagogik psixologiya kabi fanlar uchun chuqur tahlil qilib bergan. Hozirgi paytda mamlakatimizda va xorijda muloqot muammosiga qiziqish ortib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilarning bir-birlari bilan qiladigan muloqoti katta ahamiyatga ega. Psixolog olim V.N. Myasishov muloqot masalasiga chuqur yondashgan, uni o'rgangan. Boshqa olimlar muloqotni nutq kommunikatsiyasi bilan bog'lab o'rgangan bo'lsalar, V.N. Myasishov muloqotni jarayon sifatida o'rgangan. Ya'ni shaxslarning bir-biriga muloqot orqali ta'sir ko'rsatishlarini, bir-birlarini idrok qilish obyekti sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha: «Shaxs turlicha munosabatlarda qarama-qarshi sifatlarni namoyon qilishi mumkin»

Tajribali psixolog A.A. Bodalyev esa shaxs o'yinda, o'qishda, muloqotda, ya'ni faoliyatning turli sohalarida o'zining o'rini bilishi zarurligini uqtiradi. U o'zining «Shaxs va jamiyat» kitobida bu masalaga katta e'tibor berib, bu muammolar kam o'rganilganligini ta'kidlaydi. A. A. Bodalyevning fikricha, «insonni muloqot orqali tarbiyalashda bu unga qanday ta'sir qilishini avvaldan o'ylash zarur» [1].

1-3 yoshdagi bola shakllanishida psixik rivojlanishning o'ta ahamiyatlilikini inobatga olgan holda, ayrim psixologlar inson tug'ulganidan to yetuklik davrigacha

bo'lgan psixik rivojlanish asosining taxminan o'rtalari, 3 yoshga to'g'ri keladi, degan mulohazani bildiradilar [4]. Bu yoshdan boshlab, bolalar predmetlarni o'rganish olamiga qadam qo'yadilar. U endi kattalar bilan nutq orqali muomila-munosabatda bo'la oladi va sodda axloq qoidalariga amal qila boshlaydilar. Kattalar bilan bo'ladigan muloqoti tufayli bola atrof hayot haqida ko'proq ma'lumot oladi.

Shaxslarning aqli, irodasi, hissiy madaniyati, tarbiyalanganligi, nazokatligi va shu kabilarning barchasi muloqot tufayli shakllangan xislatlardir. Shu bilan birga uyqusizlik, bosh og'rig'i, nevrozlar, insultlar, infarktlar va boshqa turli kasalliklar, shuningdek ichkilikka, giyohvand moddalarga ruju qo'yish, hatto o'z joniga qasd qilish kabilar ham shu muloqotning natijasidir. Rivoyatlarda aytilishicha, dono Ezop o'z xo'jayinining «Menga avval, dunyodagi eng mazali, shirin taomni keltir va undan so'ng aksincha eng bemaza, yaramas taomni keltir», - deb buyurganida, U har ikkala safar ham qaynatilgan tilni keltirgan ekan.[5] Demak, til, muloqot inson hayotida undan qanday foydalanish, uni qanday ishlatish,

qanday tashkil qilishga qarab, uning uchun eng aziz, eng qadrli bo'lishi yoki aksincha eng fojiali bo'lishi ham mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Muloqot shunchaki so'zlashuv emas, balki shaxsni yaratuvchi ustaxonadir. Inson qanchalik sifatli va sog'lom muloqot muhitida bo'lsa, uning shaxsiyati shunchalik kuchli va barqaror shakllanadi. Biz kim bilan va qanday muloqot qilsak, aynan o'sha munosabatlar bizning kimligimizni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.F.U.Jumanova, D.E.Akramova. Muloqot psixologiyasi. Toshkent - 2023. 5-30-31-betlar.
2. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. Toshkent - 2009-yil. 80-bet.
3. M.Maqsudova. Muloqot psixologiyasi.Toshkent. "Turon iqbol" 2006-yil. 13-bet
4. Z.T.Nishonova, N.G'.Karimova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi Pedagogik psixologiya. Toshkent - 2019-yil. 175-bet.
- 5.G'. B. Shoumarov, L O. Haydarov, N. A. Sog'inov, F. A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetova. Oila psixologiyasi. «SHARQ» Nashiriyot-MATBAA Aksiyadorlik Kompaniyasi Bosh Tahririyati Toshkent - 2011. 149-bet

KOMPOZIT MATERIALLARNING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING MEXANIK XOSSALARI BA'ZI BIR MASALALARI

t.f.n., dotsent **Mirzakabilov Normurod Xudjakulovich**

JizPI

Turg'unova Oygul Bahodir qizi

O'zMU Jizzax filiali magistranti

asqarovaoygul195@gmail.com